

RASHK TUFAYLI SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR VA ULARNING BOSHQA JINOYATLARDAN FARQLI JIHATLARI

Abdiqahhorov Davlatbek Muzaffar o'g'li

Karimov Abdulaziz Abdulhamid o'g'li

Mirzanosirov Sardor Botirjon o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rashk tufayli jinoyat sodir etish holatlari, uning sodir etilish holati, jinoyat motivi va jinoyatchi shaxs ruhiyati haqida, jumladan, rashk tufayli sodire tiladigan jinoyatlarning o'ziga xos xususiyati, rashk tufayli sodir etiladigan jinoyatlar turlari va ular haqidagi statistik ma'lumotlar haqida, shuningdek, rashk oqibati kutilmagan og'zir jinoyatlarning yuz berishi va uning sabablari va oqibatlari, uni oldini olishdagi holatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Jins, rashk, jazo, jnoyat, kodeks, gender, ayollar huquqlari, affeks holar, tibbiy mezon, qonun, qasddan odam o'ldirish, xiyonat, badanga qasddan shikast yetkazish

Tahlil: Rashk tufayli jinoyat sodir etgan shaxslarnng eng asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratib, ana shu alomatlarning tavsifiga batafsilroq to'xtolib o'tamiz. Tadqiq etilayotgan jinoyatchilar kontengentining ijtimoiy demografik tahlili rashk tufayli sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati erkaklar tomonidan sodir etilganligidan dalolat beradi. Ayollarning ulushi 6 foizni tashkil etadi. Bu shaxsga qarshi jinoyat sodir etgan jnoyatchilar jami miqdoridagi jami xuddi shunday ko'rsatkichga taxminan to'g'ri keladi.

Rashk tufayli jinoyat sodir etgan bunday shaxslar nisbatida erkaklar salmog'ining ko'pligini izohlovchi omillarni tahlil etish vaqtida ana shu mulohazalarni e'tiborga olish bilan birga yana bir holatni qayt etib o'tish lozim. Psixologlar va sotsiologlarning ta'kidlashicha, erkaklar ayollarning jinsiye bevafoligini nihoyatda og'riqli va og'ir sifatida qabul qiladilar. Erkaklar rashki ayollarniki kabui oshkora emas, ularning rashki ko'p hollarda ko'zga tashlanmaydi. Erkaklar rashk qilganda ko'p og'ir holatlarni keltirib chiqaradi. Haqorat qilish, qasddan badanga shikast yetkazish, xatto qasddan odam o'ldirish holatlari ham kelib chiqadi.

Jamiyatda jinsiylar axloq sohasida tez va keskin o'zgarishlar ro'y berayotganligi, nikohdan avvalgi va nikohsiz aloqalar keng yoyilayotganligiga qaramay, odamlarning bir qismi jinsiylar tarziga nisbatan an'anaviy talablarga amal qilib kelmoqda. Ko'pincha ayollar xiyonat mavzusida erkaklar ham imtiyozga ega bo'lmasligi kerak degan shaxsiy fikrlarini bildirishadi. Erkaklar xiyonatiga nisbatan ayollar xiyonati kechirilmash sifatida qaralishi ham aynan rashk tufayli og'ir jinoyatlar kelib chiqishiga sababchi bo'lmoqda.

Hozirgi ijtimoiy globallashuv jarayonida ayollar ham rivojhlangan, ular erlarining xiyonatiga ojizlarcha ko'nikmayapdi, ular har qanday faollik bilsn kerak bo'lса g'ayriqonuniy xatti-harakatlar bilan bo'lsada erlarini olib qolishga intilmoqda. Bu o'z navbatida bunday jinoyatlarning muhit bilan hamda hudud bilan salmog'l oshganligini ko'rsatmoqda.

Qasdan odam o'ldirish jinoyati rashk tufayli sodir etilish holatlari uchrab turadi. Ko'proq ayollarning xiyonatida erkaklar tomonidan ushbu jinoyatlar sodir bo'ladi. Affekt holatda ham xiyonatni ko'tara olmaslik natijasida jinoyat sodir etish holatlari ham uchrab turadi. Rashk tufayli jinoyat sodir etilganda jinoyat motivi sifatida rash e'tirof etiladi.

Jinoyatchi shaxsni ko'rib chiqayotgan paytda uning ruhiy xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Rashk zamirida jinoyat sodir etgan shaxslarning xarakteri , ruhiyati va uning o'ziga xos ruhiy jihatlari haqidagi axborotni biz shunday qilmishlari uchun hukm qilingan va jazoni Respublikamizdagi ozodlikdan mahrum qilish jazosini kaloniyalarda o'tayotgan shaxslarning jinoyat ishlarini , shaxsiy delolarini o'rganish asosida hosil qilngan mustaqil fikr-mulohazalar yordamida ushbu koloniyalarning ma'muriyati vakillari va koloniyalar shtatidagi psixologlar bilan olib borilgan suhbatlar yordamida oldik.

Rashk tufayli sodir etilayotgan jinoyatlarning sabablari muayyan kriminogen tizimni tashkil etadi, uning ikkisi: umumiy ijtimoiy va individual darajalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Tahlil etilayotgan jinoyatlarning ommaviy ijtimoy hodisa sifatidagi sabablari umumijtimoiy darajani tashkil etadi. Fikrimizcha, ularning mazmun-mohiyatini ko'rib chiqishdan oldin birlamchi nazariy qoidalar bilan tanishib chiqish lozim.

Hozirgi vaqtida jinsiy hayot sohasida erkinlik tamoyilining kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Ko'p sonli sotsiologlarning tadqiqotiga ham fuqarolarning nikohsiz jinsiy aloqaga kirishishlari faollahшиб borayotganli kuzatilmoqda. Yuqorida aytib o'tilgan stereotiplarning yunalishini o'rganish anchagina mushkuldir. Jamiyatda ularning turg'unligini obyektiv ravishda ta'minlovchi bir qator omillar mavjud. Shulardan biri – odamning qarama-qarshi jinsdagi shaxs bilan munosabatlarga kirishish , oilali bo'lish ehtiyojidir. Bu ehtiyojning ahamiyati , hozirgi davrda ham kamayotganligini aytish lozim. Olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar turmush darjasini pasayib borayotgan, ko'nikib qolning ijtimoiy muhit o'zgarayotgan , kasb sohasida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda ham insonning ruhiy madad olishi , hurmat izzatdan foydalanishi mumkin bo'lган oilaga mansub bo'lish ehtiyoji oshib borayotganidan dalolat beradi.

Rashk tufayli sodir etilgan jinoyatlarning keltirib chiqaruvchi mexanizmi bir xil emas. Bir tomondan, ana shu ziddiyatga yorqin namoyon bo'lган kriminogen omillar shaxs ma'naviyatining shakllanishida , ayrim shaxslarning ruhiyatiga salbiy

ta'sir ko'rsatadi. Natijada ularda rashk tufayli jinoyatlar asosida yotadigan ko'ngilsiz, jamiyatga zid qarashlar keskinlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi
4. O'zbekiston Respublika ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun
5. Kriminologiya darsligi
6. Lex.uz
7. Norma.uz

